

## PEDIATRIYADA HAMSHIRALIK ISHI JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*To'rayeva Ra'no Ravshanbek qizi*

*Sadullayeva Zulayho Alisherovna*

*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat*

*Salomatligi texnikumi o'qituvchilari*

**Annotation:** Ushbu maqolada bolalar parvarishida hamshiralik ishi jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** pediateriya, hamshira, bolalik, kasallik.

Pediatriyada ham shiralik ishi jarayoni: sog'lom va bem or bolaga ham shiralik yordamini tashkil etish va ko'rsatish usuli bo'lib, bemor bola va uning ota-onasi bilan ham shiraning o'zaro munosabatlarini o'z ichiga oladi. Ham shiralik ishi jarayonini tashkil qilishda bem or bolaga faqat bemor deb emas, balki shaxs sifatida qaraladi va uning atrofidagi qarindoshlari, yaqinlarining munosabati ham inobatga olinadi. Shuning uchun ham ham shiralik ishi jarayonining klinik fanlarni o'qitish jarayonida o'rganilishi o'rta tibbiy xodim lar tayyorlashda birinchi o'rinda turadi, chunki u biror vaziyatni yoritish muammolarini har taraflam a hal qilish, bem or bolaga sifatli yordam ko'rsatishni ta'minlaydi. Bolalar bilan ishslashda ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelamiz. Chunki ham shira nafaqat bemor bola, balki uning atrofidagilar (otaonasi, buvasi) bilan hammuomala qilishiga to'g'ri keladi, bu esa o'z navbatida ham shiralarga katta mas'uliyat yuklaydi. Hamshiralar ish faoliyatida bola organizmining anatomik, fiziologik xususiyatlarini va ayrim kasalliklarning kechishini yaxshi bilishlari lozim. Hamshiralik ishi jarayonini tatbiq etishda avvalo hamshira hamshiralik ishi jarayonining m aqsadini aniqlab olishi kerak. Shu holdagina bola nimaga muhtojligini aniqlash imkoniyati tug'iladi. Boladagi asosiy m uhtojlik yoki muammolar quyidagilardan iborat: Universal muammolar aniqlab olinadi, ya'ni har bir yoshdagagi bolalaiga yoshiga qarab ovqatlantirish, ozodalikka riosa qilish, tana haroratini bir maromda ushslash, kiyinish, yechinish, uqlash va hokazolar. Odadta, universal talablarni ajratish qiyin emas, chunki ular bolaning yoshiga qarab rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqadi (ratsional ovqatlantirish to lg'risida tushuncha, rejali ovqatlantirish, uyquning buzilishi, bolaning shaxsiy gigiyenasi, kiyinishi va hokazo). Bundan tashqari, ham shira bemor bolaning potensial muammolarini aniqlashi kerak, uning o'sishi va rivojlanishiga tegishli (aqliy va jism onan o'z tengdoshlaridan orqada qolishi, tarbiyasizlik, fikrlash qobiliyatining yo'qligi). Aynan shu muammolar bolalar hamshirasi uchun qiyinchiliklar tug'diradi, chunki ko'pincha ular bemor bola bilan muloqotda bo'limganlari sababli bolaning xulq-atvorini kuzata olmaydilar. Bolalarga

yordam ko'rsatishdagi yana bir m uam m o — bu bem or bolani tekshirish jarayonida uning sog'lig'idagi o'zgarishlardir. Shifokorlar yosh bolalarni tekshirishda ancha qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki 3—4 yoshgacha bo'lgan bolalar o'z shikoyatlarini tushuntirib bera olm aydilar, ogbriyotgan joyini kolrsata olm aydilar, yana bir qiyinchilik tomoni, ular tana harorati ko'tarilganda ham o 'ynab yuraveradilar. Muammolarning barcha uch turini aniqlash, ham shiralik ishi jarayonining ikkinchi m aqsadini amalga oshirish uchun m uhim , ya'ni bem or parvarishi natijalari, vaziyatga qarab bиринчи о'rinda yosh bolalarning shaxsiy gigiyenasiga riosa qilish yoki bolaning tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilish yotadi. Ham shiralik ishi jarayonini tashkil qilishda ham shira kasallik faqat bemorning muammosigma emas, balki uning qarindosh-uruglarining ham m uam m osi ekanligini esdan chiqarmasligi lozim. Bem orni statsionarga yotqizishda uning oilaviy sharoitini inobatga olish zarur. Ham shiralik ishi jarayoni 5 asosiy qism dan iborat: 1)tekshiruv (m uam m olarni aniqlash); 2 )ham shira tashxisi (xulosalar chiqarish); 3 )parvarish rejasini tuzish (bajariladigan ishlarni tartiblash); 4 ) amalga oshirish (rejadagi ishlarni bajarish); 5)natija (bajarilgan ishlarni baholash). 1. Asosan, hamshiralik ishi sog'nom yoki bem or bolani tekshirishdan boshlanadi. O datda 4—5 yoshgacha bo'ngan bolalar og'riyotgan joyini ko'rsata olm aydilar. Shu sababli tibbiyat hamshiralari aksariyat ma'lumotlarni bolaning onasi yoki uning yaqin larid an olishlari m um kin. 2. Agar tekshirish vaqtida kerakli axborot yig'lgan bo'lsa, ham shira tashxisini q o'yish qiyin emas. Pediatriyada hamshiralik tashxisi 3 qism dan iborat: a. Bio-geneologik rivojlanish xususiyatlari, aw algi kasalliklari, jarohatlar, akusherlik anam nezi; b. Sotsial (ijtimoiy tarbiyalash tipi, oilaviy sharoit); d. Klinik (sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolar). 3. Hamshiralik ishi parvarish rejasini tuzishda qo'shim cha tekshiruv, shoshilinch yordam , parhez va m edikam entoz korreksiyadan tashqari, bem orning himoya m odelini ham inobatga olish zarur. 4. Ham shira nafaqat biror-bir tadbirni rejalashtirishi, balki uni amalga oshirish lozim. Amalga oshirishning 3 asosiy turi mavjud: 1. Biror bir narsaga bog'liq faoliyat tu ri, m asalan , bem orga shifokor ko'rsatm asiga binoan antibiotiklar buyuriladi, ham shiradan uni amalga oshirish uchun faqat bilim va ko'nikm a talab qilinadi; 2. Biror narsaga bog'liq em as — ham shiraning m ustaqil ishlashi (masalan, bolaning onasini massajga yoki ovqat pishirish texnologiyasiga o 'rgatish); 3. Bir-biriga bog'niq holda — ham shiraning boshqa mutaxassislar bilan ham korlikda ishlashi (m asalan, stom atolog m aslahatidan so'ng og'iz bo 'shlig'ini parvarishlash). Amalga oshirish bosqichida ham shira ish jarayoni xaritasini olib boradi, realizatsiya grafasida kirdi, qachon va qayerda bajarishini aniq ko'rsatadi, bajarilgan ishlarni haqida o 'z vaqtida qaydlar o'tkazadi. 5. Shundan so'ng, ham shira keyingi bosqichga o'tadi. Bu bosqichda quyidagi ko'rsatkichlar e 'tiborga olinadi: 1. Bemorning muolajalarga bo'lgan reaksiyasini baholash (m asalan, q at'ian yotish rejimiga riosa qilinganda bem orning sudno q o 'yilishiga reaksiyasi); 2. M uolajalar to 'g'risida bem orning fikri; 3.

Qo‘yilgan m aqsadga erishishni baholash, ham shira am alga oshirgan tadbirlarning to‘g‘riligini aniqlash uchun kerak. Agar m a‘lum muddatda maqsadga erishilmasa, xato taktika qo‘langan yoki patsiyentni tekshirish to‘la hajmda amalga oshirilmagan bo‘lsa, demak, hamshiralik jarayonini birinchi bosqichdan boshlash kerak; 4. K o‘rsatilgan yordam ni baholash. Hamshiralik ishi jarayoni pediatriyada tashkil etilgan eng zamonaviy m odellardan bo‘lib, ham shirada mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J.Eshqobulov, A.Mahmudov. Bolalar kasalliklari fani. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. Toshkent. 1993.
2. K.A.Svyatkina, E.V.Belogorskaya, N.P.Kudryavsev. Bolalar kasalliklari fani. A bu Ali ibn Sino nom idagi tibbiyot nashriyoti. Toshkent. 1990